**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**DSc.03/2025.27.12.T.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**ABDURAXMONOV ABROR BARATOVICH**

# NEFT QOLDIQLARIDAN FOYDALANIB KAM OLTINGUGURTLI KOKS OLISH TEXNALOGIYASI

**02.00.08 - Neft va gaz kimyosi va texnalogiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**
**DISSERTATSIYA AVTOREFARATI**

**Toshkent - 2026**

**УДК: 665.753.4**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtorefarati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Abdurahmonov Abror Baratovich**
Neft qoldiqlaridan kam oltingugurtli koks olish texnalogiyasi……..... 3

**Abdurahmonov Abror Baratovich**
Технология получения малосернистого кокса из нефтяных остатков..... 21

**Abdurahmonov Abror Baratovich**
Technology for producing low-sulfur coke from petroleum residues..... 39

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ..... 42

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**DSc.03/2025.27.12.T.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**
**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**ABDURAXMONOV ABROR BARATOVICH**

# NEFT QOLDIQLARIDAN FOYDALANIB KAM OLTINGUGURTLI KOKS OLISH TEXNALOGIYASI

**02.00.08 - Neft va gaz kimyosi va texnalogiyasi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**
**DISSERTATSIYA AVTOREFARATI**

**Toshkent - 2026**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyada B2024.4.PhD/T5022 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Umumiy va noorganik kimyo instituti institutida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi www.tkti.uz va «ZiyoNet» axborot ta'lim tarmog'iga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Xamidov Bosit Nabiyevich**<br>texnika fanlari doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Fozilov Sadriddin Fayzullayevich**<br>texnika fanlari doktori, professor |
| | **To'rayev Tolib Bozorovich**<br>texnika fanlari doktori, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Toshkent Davlat Texnika Universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.T.42.01 raqamli Ilmiy Kengashning «3» 09 2026 yil soat «11⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent sh., Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 32-uy. Tel.: (99871)244-79-20, faks: (99871) 244-79-17, ye-mail: tkti_info@edu.uz.). Toshkent kimyo-texnologiya instituti Ma'muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan Toshkent kimyo-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (434 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (100011, Toshkent sh., Shayxontoxur tumani, A.Navoiy ko'ch.32. Tel.: (99871) 244-79-20).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «28» 07 kuni tarqatildi.
(2026 yil «28» 07 dagi № 19 raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.M. Turobjonov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor, akademik

**X.I.Kadirov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

**G.Raxmonberdiyev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda neft koksi tarkibida oltingugurt miqdorining ko‘pligi sababli uni to‘g‘ridan to‘g‘ri sanoat ehtiyojlari uchun foydalanish atrof muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oltingugurt miqdorini kamaytirish asosan desulfinizatsiya usuli orqali amalga oshiriladi. Neft koksi mexanik mustahkamligi sababli elektrometallurgiyada elektrod, maydalangan koks sementga qo‘shilganda mustahkamligini oshirishda va namlikdan saqlanishida, issiqlik elektr stansiyalarida va metallurgiyada yonilg‘i sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Neft koksi tarkibidan oltingugurt miqdorini kamaytirish, fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Jahonda neft qoldiqlaridan kam oltingugurtli koks olish texnologiyasini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, neft qoldiqlaridan olingan koks tarkibida oltingugurt miqdorining koksning sifati, miqdoriy ko‘rsatkichlari, kimyoviy va fizik xossalariga ta’sirini aniqlash, kam oltingugurtli neft koksini elektrometallurgiya, qurilish, issiqlik elektr stansiyalarida va uglerod materialli adsorbent sifatida foydalanishni takomillashtirishga va sinovdan o‘tkazishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikada neft kimyosi sanoatini jadal rivojlantirish, yangi turdagi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, raqobatbardosh mahsulotlarning turlari va hajmi kengayishi, neft qoldig‘idan kam oltingugurtli neft koksi ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, muayyan ilmiy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «neft-gaz sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish orqali tabiiy gaz ta’minotida ijtimoiy himoya kafolatlari belgilangan holda bozor mexanizmlarini joriy etish»[1] kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, atmosfera va gidrosferaga zarar yetkazuvchi neft shlami chiqindilarni qayta ishlash, kam oltingugurtli neft koksi olish va sanoat ehtiyojlari uchun qo‘llashga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2019 yil 1 fevraldagi PF-5646-son «O‘zbekiston Respublikasining yoqilg‘i-energetika sanoati boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni, 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlar, 2019 yil 3 apreldagi № PQ-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu diccertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishini ustuvor yo‘nalishlarga bog‘liqligi**. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» farmoni

rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** Neftni qayta ishlash jarayonlarida hosil bo‘ladigan qoldiqlardan kam oltingugurtli koks olish texnologiyalarini ishlab chiqishni jadallashtirish bo‘yicha xorijiy va mahaliiy olimlardan M.E. Levinter, R.Z. Magaril, A.F. Krasyukov, A.N. Saxanova, M.D. Tilicheva, S.N. Obryadchikov, B.N. Xamidov, G.R. Normetova, Sh.M. Saydaxmedov va boshqa tadqiqotchilar ilmiy ishlar olib bordilar.

Ular tomonidan, neft va neft mahsulotlarini qayta ishlashning ilmyi asoslari yaratilgan, neft koksi olish, iqtisodiy va yuqori eksplutatsion xossali elektr sanoatining bir qancha sohalari uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarish texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar bergan.

Shu bilan birga, koks mahsulotlarining fizik-kimyoviy va texnologik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, ishlatiladigan neft xom ashyosining mavjud imkoniyatlarini aniqlash, neft qoldiqlari asosida yuqori sifatli kam oltingugurtli koks olish ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar bugungi kunga qadar bajarilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasaning ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqotlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IPP-12 «Organik, noorganik va boshqa tabiiy materiallarni ishlab chiqarishning yangi texnologiyalari» (2017-2021 yy.) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** neft qoldiqlaridan kam oltingugurtli koks olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

«Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJda chiqadigan neft koksini fizik-kimyoviy xossalari, tarkibi va tuzilishini aniqlash;

koks mahsulotlarining fizik-kimyoviy va texnologik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va ishlatiladigan neft xom ashyosining mavjud imkoniyatlarini aniqlash;

kam oltingugurtli neft koksining sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarini aniqlash;

kam oltingugurtli koksning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini asoslash va tadqiqotlar natijalari asosida jarayonning ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

«Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJ tomonidan metallurgiya sanoati uchun kam oltingugurtli koks olish texnologiyasini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obekti** sifatida «Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJda neft mahsulotlarini qayta ishlash jarayonida hosil bo‘ladigan ikkilamchi qoldiq mahsulotlardan olingan kam oltingugurtli koksi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** neft qayta ishlashdan hosil bo‘ladigan qoldiqlardan kam oltingugurtli koks olish usullari va texnologiyasi tashkil etgan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda matematik statistika va modellashtirish, gaz-xromatografik va IQ-spektroskopik tahlil usullari va bulardan tashqari fizik-mexanik, texnologik va ekspluatatsion xususiyatlarini aniqlashda standartlashtirilgan sinov uslublaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

neftni qayta ishlash ikkilamchi qoldiq mahsulotlarning fizik-kimyoviy xususiyatlari, uglevodorodlar tarkibi hamda geteroatomli birikmalarning tuzilishi aniqlanib, distillatli mahsulotlarning kam oltingugurtli koks sifati va miqdoriy ko‘rsatkichlariga ta’siri asoslangan;

kokslash jarayoni texnologik parametrlarining (harorat, bosim va kokslash vaqti) koksning oltingugurt miqdori va strukturaviy xossalariga ta’sir mexanizmi isbotlangan;

kam oltingugurtli koks olish maqbul sharoitlari kompleks asoslanib, adsorbent-strukturaviy xususiyatlariga bog‘liqligi aniqlangan;

ilk bor yuqori bosimda neft qoldiq mahsulotlaridan metallurgiya sanoati uchun oltingugurt miqdori 1,8 % gacha kamaytirilgan neft koksi olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

neft qoldiqlari asosida kam oltingugurtli neft koksi tarkibi aniqlangan;

«Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJ neft qoldiqlaridan olinadigan koks tarkibidagi oltingugurt miqdorini kamaytirishning maqbul sharoitlari aniqlangan;

neft qoldiqlaridan kam oltingugurt neft koksi olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** taxlilda zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot uslublari, neft qoldiqlarini yuqori bosimlarda qayta ishlash tizimini takomillashtirilishi, kam oltingugurtli arzon neft koksi ishlab chiqarish texnologiyalarini sanoatga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy neft-gazni qayta ishlash sanoati ikkilamchi xomashyolari asosida metallurgiya sanoati uchun kam oltingugurtli koks olish va ularni sanoat jarayonida qo‘llashning ilmiy asoslari yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati neftni qayta ishlashda qoldiq mahsulotlaridan kam oltingugurtli koks olish texnologiyasini ishlab chiqish hamda kimyo va kimyoviy texnologiya, sanoatda oqava suvlarini, foydalanilgan dvigatel va transformator texnik moylarini tozalash ixtisosliklari bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlashdagi o‘quv jarayonida foydalanish uchun xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Neftning qoldiq mahsulotlaridan kam oltingugurtli neft koksi olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

neft qoldiq mahsulotlari gudron va asfalt asosida kam oltingugurtli koks olish texnologiyasi «Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJ ning «2025-2027 yillar amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalar» ro‘yxatiga kiritilgan («Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning 2023 yil 4 sentyabrdagi 01-02/2002-son ma’lumotnomasi). Natijada, oqava suvlarni neft mahsulotlaridan tozalashda qo‘llaniladigan import o‘rnini bosuvchi adsorbent ishlab chiqarish imkonini bergan;

olingan ko‘mir adsorbenti yordamida oqava suvlar tarkibidan neft mahsulotlarini tozalash texnologiyasi «Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJ ning «2025-2027 yillar amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalar»

ro‘yxatiga kiritilgan («Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning 2023 yil 4 sentyabrdagi 01-02/2002-son ma’lumotnomasi). Natijada oqava suvlarni neft mahsulotlaridan 88-93 % gacha tozalash imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi va materiallari bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Oliy Attestatsiya Komissiyasini dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil etdi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Kam oltingugurtli koks ishlab chiqarishning zamonaviy usullari va tahliliy ishlanmalari** (Adabiyotlar tahlili)**»** deb nomlangan birinchi bobida, kam miqdorli oltingugurtli kosks olishning zamonaviy usullari, neft koksi va uning turlari haqida umumiy tushunchalar, ularning sinflanishi haqida tushunchalar, neft koksi tarkibida oltingugurt miqdorini kamaytirish usullari va sifatini yaxshilash texnologiyasini ishlab chiqishga oid xorijiy ma’lumotlar batafsil yoritib berilgan. Adabiyotlardagi ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida mazkur tadqiqotning maqsadi va vazifalari ifodalangan.

Dissertatsiyaning **«Kam oltingugurtli neft koksini olishda tadqiqot obyektlari va fizik kimyoviy xossalarini aniqlashning zamonaviy usullari»** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektini tanlash, oltingugurt miqdorini kamaytirish usuli, neft koksini sifatini baholash, Respublikamizda neftni qayti ishlashda chiqadigan qoldiq mahsulot, neft koksini tarkibida oltingugurt miqdori aniqlash va sifat ko‘rsatkichlari aniqlashning GOST talablari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Laboratoriya sharoitida bosim ostida kokslashtirish bloki sxemasi 1-rasmda keltirilgan. Eksperimentlar davomida reaktorning zarur harorat rejimini barqaror ushlab turish maqsadida, 2-sonli kokslash reaktorining devorlari va tub qismini mustaqil ravishda isitish uchun 1-sonli pechdan foydalanildi. Ushbu pechning isitish jarayoni 3-raqamli laboratoriya avtotransformatorlari orqali kerakli kuchlanish bilan ta’minlanadi. Reaktorning kesimida harorat maydonining bir xil taqsimlanishini ta’minlash uchun uning diametri minimal 50 mm va balandligi 250

mm bo‘lgan holda belgilangan. Ko‘proq xom ashyo ishlatish uchun ichki diametri 100 mm va balandligi 250 mm bo‘lgan reaktordan foydalaniladi. Reaktorlar zanglamas po‘latdan (12X18H1 OT) ishlab chiqariladi, bu esa kokslash jarayonida harorat diapazonini sezilarli darajada kengaytirishga imkoniyat yaratadi. 6-klapn joylashgan nuqtadan oldin, reaktorda koksni kokslash, tushirish, tozalash va yig‘ish jarayonlarini amalga oshirish, shuningdek, xom ashyoni yuklagandan so‘ng reaktorni demontaj qilish imkonini beruvchi tishli ajraluvchi ulanish o‘rnatilgan. Ushbu mexanizm, laboratoriya qurilmasini reaktordan mustaqil tarzda ajratishga sharoit yaratadi. Bosim ostida olib boriladigan kokslash jarayonida reaktorning yuqori qismlaridan gazning chiqib ketishini kamaytirish maqsadida, zich yopiqlikni ta'minlaydigan maxsus muhrlovchi elementlar qo‘llaniladi. Bunga elastik muhrlar, quvur uchlarida joylashgan biriktiruvchi halqalar, shuningdek, tashqi tomondan alyuminiy folga bilan o‘ralgan germetik materiallar kiradi. Reaktorning yuqori va pastki qismlaridagi harorat o‘lchovi TXA rusumidagi xrom-nikel (xromel-alumel) tipdagi termoparalar yordamida amalga oshiriladi. Termojuftlar reaktorning qopqog‘iga o‘rnatilgan maxsus himoya naychalariga (termovellarga) joylashtirilgan bo‘lib, ular reaktorning yuqori va quyi qismlaridan 50 mm masofada joylashgan. Harorat o‘zgarishi natijasida hosil bo‘ladigan termoelektr kuch A 565-002-02 markali ko‘p nuqtali, statsionar, 4-toifa potansiyometr yordamida aniqlanadi. Eksperimental sharoitda haroratni o‘lchash aniqligi ±1,0 °C ni tashkil etadi. Kokslash jarayonida hosil bo‘ladigan bug‘larni sovutish reaktordan chiquvchi gaz va suyuqlik oqimini "quvur ichida joylashgan quvur" tipidagi 7- issiqlik almashinuv uskunasi yordamida amalga oshiriladi. Sovutgichda parafinli fraksiyalarni sovitish vaqtida ichki quvurning erta tiqilib qolishining oldini olish uchun issiq bug‘, aromatik qoldiqlar uchun esa sovuq bug‘ ishlatiladi.




**2-rasm – Laboratoriya bosimli kokslashtirish bloki sxemasi.**

*1 – pech; 2 – reaktor; 3 – laboratoriya avtotransformatorlari; 4 – potensiyometr; 5 – manometr; 6, 9, 13, 16, 17 – klapnlar; 7, 10 – muzlatgichlar; 8 – separator-muzlatgich; 11, 12 – elektromexanik diagrammalar; 14 – gaz soati; 15 – gazometr; 18 – ventilyatsiya.*

Kokslash distillatini yig‘ish ichki diametri 50 mm va balandligi 380 mm bo‘lgan 8-separatorda amalga oshiriladi. Kokslashdan keyin distillatni tushirish uchun ajratgichda 9-drenaj klapni o‘rnatilgan. Agar separator 8 va drenaj klapni 9

koks kukuni va distillat aralashmasidan hosil bo‘lgan kolloid cho‘kindi bilan tiqilib qolsa, tozalash jarayoni yuqori va pastki gardish ulanishlarini ochish orqali amalga oshiriladi. Suyuq kokslangan mahsulotlar gazlar orqali yo‘qotilishini kamaytirish uchun sovutgichdan 8-separatorga 150 mm masofada o‘rnatilgan quvur orqali bug‘ va suyuqliklar reaktordan separatorga yetkaziladi. Agar xushbo‘y komponentlari ko‘proq bo‘lgan kokslanuvchi xom ashyo qo‘llanilsa, 8-separator to‘liq sovutishni ta’minlash uchun " quvur ichida joylashgan quvur " shaklidagi sovutgich bilan jihozlanadi. 8-separatorning chiqishida suyuq $C_5$ fraksiyalarining yo‘qolishini kamaytirish uchun " quvur ichida joylashgan quvur " sovutgich 10 o‘rnatilgan. Bu sovutgich, kokslangan distillatning harorati 50 °C dan yuqori bo‘lganda, kokslangan gazlardan ajralib, suyuqliklarni alohida to‘xtatishga imkon beradi. Kokslash jarayonida ajralib chiqadigan gazlar miqdorini aniqlash uchun 14 turdagi GSB-400 gaz hisoblagichi ishlatilgan. Tajriba natijalariga asoslanib, yo‘qotishlar va kokslangan gazlarning tarkibini aniqlash maqsadida namunalarni tanlash hamda o‘rtacha miqdorlarini hisoblash uchun, natriy xloridning konsentratsiyalangan suvli eritmasi bilan to‘ldirilgan, xlorid kislotasi bilan kislotalangan va indikator sifatida fenolftalein qo‘shilgan standart shisha gaz kollektori (15) qo‘llaniladi. Laboratoriyada 2-reaktorda isitiladigan qaldiqlardan chiqadigan bug‘lar va gazlarning hisobini asosan bosimni avtomatik tarzda nazorat qilish tizimi orqali belgilash mumkin. Bosimning belgilanishi va nazorati 6-raqamli avtomatik boshqariluvchi valf yordamida amalga oshiriladi, bu qurilma tizimdagi belgilangan bosimni elektromexanik boshqaruv sxemasi orqali avtomatik ravishda ushlab turadi. Tizim tarkibiga EKM-1U rusumli elektr kontaktli manometr (11-tur) hamda reaktor va gaz ajratgich (separator) orasidagi bosimni barqarorlashtiruvchi impulsli pnevmatik boshqaruv valfi (INK) kiritilgan. Avtomatik boshqaruv moduli tizim bosimi belgilangan chegaraviy qiymatdan oshgan holatni aniqlaydi va ortiqcha gazlarni xavfsiz chiqarib yuborishni ta'minlaydi.Bosimni nazorat qilish separatorsiz reaktorda pnevmatik impuls klapanining past ishlash harorati (200°C) bilan cheklangan. Elektromexanik sxema belgilangan bosim me’yoridan oshganida reaktor-separator tizimidagi bosimni avtomatik ravishda pasaytirishni ta’minlaydi. Bosimni barqaror ravishda kamaytirish impulsli pnevmatik klapn (IPK) va o‘zgaruvchan o‘tish teshigiga ega gaz klapani orqali amalga oshiriladi. Bu qurilmalar elektr kontaktli bosim o‘lchagichi yordamida kiruvchi ortiqcha bosim impulsini yo‘qotadi.

1-jadval

Harorat o‘zgarishi bilan og‘ir neft qoldiqlari kokslashning moddiy balanslari

| Nomi | Smala | | OKKGM | | OPQ | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 500 °C | 470 °C | 500 °C | 470 °C | 500 °C | 470 °C |
| Gaz chiqishi | 12,2 | 16,0 | 17,4 | 15,4 | 7,4 | 17,0 |
| Distillatlar miqdori | 60,8 | 55,1 | 58,5 | 52,8 | 65,0 | 52,7 |
| Koks | 27,0 | 28,9 | 24,1 | 31,8 | 27,6 | 30,2 |

Kokslash haroratining yakuniy mahsulot miqdoriga ta’sirini aniqlash maqsadida 470 °C dan 500 °C gacha bo‘lgan harorat oralig‘ida eksperimental

tadqiqotlar o‘tkazildi. Tajriba natijalari va material balanslari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, kokslash haroratining oshishi barcha eksperimental sharoitlarda distillat mahsulotlarining hosildorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, hosil bo‘layotgan qattiq qoldiq – ya’ni koks miqdori, harorat ortishi bilan kamayib boradi. Bu esa tajriba davomida aniqlangan tendensiyalarni hamda harorat parametrining jarayon mahsuldorligiga bo‘lgan ijobiy ta’sirini yaqqol tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqotda qayta ishlanadigan turli xil xom ashyo turlari uchun kokslash jarayonining maksimal iqtisodiy samaradorligini ta’minlash maqsadida tavsiya etilgan optimal bosim diapazonlari quyidagicha aniqlangan: deasfaltizatlanuvchi qoldiqlar (dkO) uchun 0,6–0,7 MPa; asfaltlanadigan fraksiyalar uchun 0,25-0,35 MPa; smola uchun 0,35-0,45 MPa. Bosim parametrlarining jarayon samaradorligiga ta’sirini o‘rganish maqsadida, 2-jadvalda smola va og‘ir katalitik kreking fraksiyasi aralashmasi misolida kokslash bosimining o‘zgarishi moddiy balansga qanday ta’sir ko‘rsatishi natijalari keltirilgan.

**2-jadval**

**Kokslash bosimi o‘zgarganda og‘ir neft qoldiqlarining moddiy balanslari**

| Nomi | Smola | | OKKGM | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 0,2 MPa | 0,4 MPa | 0,3 MPa | 0,4 MPa | 0,5 MPa | 0,6 MPa |
| Gaz chiqishi | 12,5 | 12,2' | 16,5 | 17,4 | 19,0. | 19,9 |
| Distillatlar miqdori | 66,0 | 60,8 | 62,5 | 58,5 | 53,2 | 50,2 |
| Koks | 21,5- | 27,0 | 21,0 | 24,1 | 27,8-’ | 29,9 |

2-jadval ma’lumotlariga ko‘ra, distillash kokslash fraksiyalarining sonini oshirish uchun smola kokslash bosimini pasaytirishning samaradorligi, kam oltingugurtli neft qoldig‘i sifatida, ta’riflangan. Neft smolasini kokslash texnologiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, past qoldiq bosimi sharoitida koks va gaz mahsulotlarining hosildorligi kamayadi, buning evaziga distillash yo‘li bilan olinadigan suyuq fraksiyalarning chiqishi oshadi. Ushbu holat past bosimli kokslash jarayoni yordamida yuqori oltingugurtli neft qoldiqlarini samarali qayta ishlash imkonini beradi. Natijada, gidrokreking va gidrogenlash kabi zamonaviy qayta ishlash texnologiyalari uchun zarur bo‘lgan distillatli xom ashyoni ajratib olish imkoniyati ortadi.

«Kokslanish jarayonlarida xosil bo‘ladigan mahsulotlarini eksperimental tahlili va sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlari» deb nomlangan uchinchi bobida og‘ir fraksiyalardan kam oltingugurtli neft koksini olishning sharoitlari to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kokslash jarayonining holatini chuqur o‘rganish maqsadida dastlab alohida xom ashyo turlari-ya’ni smola, asfaltli smolalar va og‘ir katalitik kreking fraksiyalari-bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Ushbu boshlang‘ich tadqiqotlar xom ashyo tarkibiy xususiyatlari va texnologik parametrlarning koks hosil bo‘lishidagi sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashga qaratildi. Keyinchalik tajribalar ushbu xom ashyolar aralashmalarini ham qamrab olib, ularning o‘zaro sinergik yoki antagonistik ta’sirini aniqlashga yo‘naltirildi. 3-

jadvalda ishlatilgan xom ashyolar tarkibi va kokslash jarayonida qo‘llanilgan asosiy texnologik sharoitlar bayon etilgan.

3-jadval

Xom ashyoning tarkibi, kokslashning ish parametrlarining qiymatlari.

| № | Gudron, % | OKKF, % | Asfalten % | Temperatura, °C | Bosim, MPa |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 100 | - | - | 495-500 | 0,2 |
| 2 | 100 | - | - | 495-500 | 0,4 |
| 3 | - | 100 | - | 495-500 | 0,3 |
| 4 | - | 100 | - | 495-500 | 0,4 |
| 5 | - | 100 | - | 495-500 | 0,5 |
| 6 | - | 100' | - | 495-500 | 0,6 |
| 7 | 96 | 4 | - | 495-500 | 0,4 |
| 8 | 80 | 20 | - | 495-500 | 0,4 |
| 9 | 60 | 40 | - | 495-500 | 0,4 |
| 10 | 40 | 60 | - | 495-500 | 0,4 |
| 11 | 20 | 80 | - | 495-500 | 0,4 |
| 12 | - | - | 100 | 495-500 | 0,4 |
| 13 | 94 | - | 6 | 495-500 | 0,4 |
| 14 | 90 | 4 | 6 | 495-500 | 0,4 |
| 15 | 70 | - | 30 | 495-500 | 0,4 |
| 16 | 40 | 20 | 40 | 495-500 | 0,4 |
| 17 | 40 | 40 | 20 | 495-500 | 0,4 |
| 18 | 20 | 40 | 40 | 495-500 | 0,4 |
| 19 | 30 | - | 70 | 495-500 | 0,4 |
| 20 | - | 70 | 30 | 495-500 | 0,4 |
| 21 | - | 40 | 60 | 495-500 | 0,4 |

3-jadvalda Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodida bosim ostida ishlaydigan kokslash qurilmasida, og‘ir neft qoldiqlaridan tarkib topgan aralash xomashyo asosida laboratoriya sharoitida o‘tkazilgan kokslash jarayonining moddiy balans ko‘rsatkichlari keltirilgan.

3-jadval

Og‘ir neft qoldiqlarini kokslashning moddiy balanslari.

| Tajriba raqami | Kokslash mahsulotlarining unumi, %. | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Gaz | Benzin n. k 200°C | Yengil neft mahsuloti 200-350 $^0$C (LKD) | Og'ir neft mahsuloti 350 $^0$C (TKD) | Koks |
| 1 | 12,5 | 15,7 | 30,8 | 19,5 | 21,5 |
| 2 | 12,2: | 15,4 | 30,9 | 14,5 | 27,0 |
| 3 | 16,5 | 9,1 | 23,3 | 30,1 | 21,0 |
| 4 | 17,4 | 9,1 | 23;5 | 25,9 | 24,1 |
| 5 | 19,0 | 8,5 | 23,6 | 21,1 | 27,8 |
| 6 | 19,9 | 8,1 | 23,8 | 18,3 | 29,9 |
| 7 | 13,9 | 14,3 | 32,0 | 13,3 | 26,5 |
| 8 | 14,0 | 15,3 | 29,1 | 15,4 | 26,2 |
| 9 | 15,2 | 13,4 | 27,8 | 18,0 | *25,6* |
| 10 | 16,1 | 11,6 | 27,0 | 20,2 | 25,1 |
| 11 | 16,9 | 9,8 | 25,1 | 23,7 | 24,5 |
| 12 | 7,4 | 10,9 | 51,0 | 3,1 | 27,6 |
| 13 | 13,0: | 14,5 | 32,0 | 13,4 | 27,1 |
| 14 | 13,4 | 14,0 | 32,1 | 13,6 | 26,9 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 15 | 10,9 | 14,1 | 36,9 | 11,0 | 27,1 |
| 16 | 11,0 | 12,6 . | 38,1 | 11,6 | 26,7 |
| 17 | 12,1 | 13;0- | 32,7 | 16,3 | 25,9 |
| 18 | 11,5 | 11,8 | 36,9 | 13,7 | 26,1 |
| 19 | 8,8 | 10,7 | 46,7 | 6,5 | 27,3 |
| 20 | 13,7 | 8,8. | 36,1 | 16,1 | 25,3 |
| 21 | 11,4 | 8,9 | 41,8 | 11,4 | 26,5 |

Kokslash jarayoni davomida hosil bo‘ladigan gazsimon yon mahsulotlar (odatda gaz kondensatlari deb ataladi) tarkibi smola (smola) xomashyosi asosida o‘rganildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, hosil bo‘lgan gaz aralashmasining komponentlari quyidagicha taqsimlangan: vodorod-0,15%, vodorod sulfide-5,05%, metan-24,87%, etan-19,84%, etilen-2,16%, propan-18,45%, propilen-5,54%, izobutan-1,76%, n-butan-6,59%, butil-6,58%, izopentan-6,12%, n-pentan-2,34%, amilenlar-3,53%, va $C_6$ va undan yuqori uglevodorodlar-2,02%. Ushbu gaz aralashmasining umumiy zichligi 1,29 g/l ni tashkil qilgan.

Yuqori molekulali uglevodorodlarning mavjudligi tufayli ushbu gazsimon fraksiya yuqori issiqlik qiymatiga ega bo‘lib, uni energiya tashuvchisi sifatida yoki turli kimyoviy qayta ishlash jarayonlari uchun xomashyo sifatida foydalanish imkoniyatini beradi. Biroq, uning tarkibida vodorod sulfidi hamda to‘yinmagan uglevodorodlar mavjudligi sababli amaliy qo‘llanilishidan oldin chuqur tozalash va komponentlarga ajratish jarayonlarini o‘tkazish zarur bo‘ladi. Og‘ir katalitik kreking fraksiyalaridan olingan kokslash mahsulotlarining hosildorligiga 0,3 dan 0,6 MPa gacha bo‘lgan bosim ta’sirini o‘rganish natijasida aniqlanishicha, bosim ortishi mahsulotlarning taqsimoti va tarkibida izchil, aniq yo‘nalishli o‘zgarishlarga olib keladi.

Benzin fraksiyasida oltingugurt miqdori, zichlik va yod sonining kamayishi kuzatiladi, bu esa parafinli uglevodorodlar ulushining ortganligini ko‘rsatadi. Eksperimental tadqiqotlar bilan mos keladi. Xuddi shunday holat yengil kokslanilgan gazoyl fraksiyasida ham kuzatilib, unda ham zichlik va yod soni kamayadi, biroq oltingugurt miqdori oshadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu fraksiyaning chiqish miqdori bosimdagi o‘zgarishlarga sezilarli darajada bog‘liq emas.

Aksincha, og‘ir kokslanilgan gazoyl fraksiyasining hosildorligi sezilarli darajada kamayadi-30,1% dan 18,3% gacha, shu bilan birga zichligi pasayadi va oltingugurt miqdori ortadi.

Koks ishlab chiqarish miqdori taxminan 42% ga oshadi, natijada uning umumiy massadagi ulushi 21,0% dan 29,9% gacha yetadi. Koksning oltingugurt va kul miqdori bosim o‘zgarishiga deyarli ta’sir qilmaydi, biroq bosimning oshirilishi natijasida koksning ichki tuzilishi yaxshilanadi va uning haqiqiy zichligi 2,09 g/sm³ dan 2,12 g/sm³ gacha ko‘tariladi.

4 va 5-jadvallarda benzin fraksiyasining sifat parametrlariga, kokslash natijasida hosil bo‘ladigan yengil va og‘ir fraksiyalarga, shuningdek, yakuniy mahsulot sifatida ajralib chiqadigan koks miqdoriga doir ma’lumotlar keltirilgan.

4-jadval

Kokslash jarayonida hosil bo‘lgan benzin fraksiyasi va yengil kokslanilgan gazoylning fizik-kimyoviy xossalari

| Tajriba raqami | Benzin n.k. - 200 °C | | | Yengil neft mahsuloti 200 - 350 °C | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Oltingugurt miqdori, % | Iod soni, rJ2/100r | Zichlik, g/sm$^3$ | Oltingugurt miqdori, % | Iod soni, rJ2/100r | Zichlik, g/sm$^3$ |
| 1 | 0,43 | 92,0 | 0,751 | 1,39 | 68,0 | 0,856 |
| 2 | 0,45 | 91,0 | 0,784 | 1,44 | 67,0 | 0,861 |
| 3 | 0,14 | 89,4 | 0,796 | 0,59 | 65,0 | 0,875 |
| 4 | 0,13 | 87,1 | 0,794 | 0,61 | 63,0 | 0,869 |
| 5 | 0,13 | 85,0 | 0,792 | 0,73 | 61,0 | 0,863 |
| 6 | 0,12 | 83,4 | 0,789 | 0,75 | 59,0 | 0,857 |
| 7 | 0,48 | 87,1 | 0,756 | 1,35 | 63,8 | 0,861 |
| 8 | 0,39 | 89,7 | 0,786 | 1,36 | 67,0 | 0,863 |
| 9 | 0,33 | 89,1 | 0,788 | 1,00 | 66,2 | 0,864 |
| 10 | 0,27 | 88,4 | 0,790 | 0,93 | 65,3 | 0,866 |
| 11 | 0,20 | 87,8 | 0,792 | 0,75 | 64,5 | 0,867 |
| 12 | 0,08 | 79,5 | 0,928 | 0,16 | 45,0 | 0,996 |
| 13 | 0,44 | 90,3 | 0,760 | 1,30 | 65,7 | 0,869 |
| 14 | 0,42 | 90,2 | 0,757 | 1,22 | 65,5 | 0,875 |
| 15 | 0,34 | 87,6 | 0,820 | 1,04 | 60,4 | 0,902 |
| 16 | 0,24 | 85,6 | 0,833 | 0,72 | 57,4 | 0,917 |
| 17 | 0,25 | 87,1 | 0,811 | 0,87 | 61,1 | 0,891 |
| 18 | 0,18 | 84,8 | 0,834 | 0,50 | 56,6 | 0,918 |
| 19 | 0,19 | 82,9 | 0,868 | 0,60 | 51,6 | 0,956 |
| 20 | 0,14 | 85,9 | 0,797 | 0,54 | 48,1 | 0,902 |
| 21 | 0,13 | 83,1 | 0,842 | 0,38 | 47,4 | 0,945 |

5-jadval

Og'ir kokslanadigan gaz nefti va koksning fizik-kimyoviy sifat ko'rsatkichlari.

| Tajriba raqami | Og'ir neft mahsuloti 350 °C — к.к. | | Koks | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Oltingugurt miqdori, % | Zichlik, g/sm$^3$ | Oltingugurt miqdori, % | Uchuvchan moddalar miqdori.% | Kul miqdori, % massa. |
| 1 | 1,56 | 0,926 | 2,22 | 3,2 | 0,306 |
| 2 | 1,67 | 0,934 | 2,33 | 3,0 | 0,320 |
| 3 | 1,44 | 0,952 | 1,41 | 4,4 | 0,082 |
| 4 | 1,47 | 0,945 | 1,43 | 4,5 | 0,080 |
| 5 | 1,49 | 0,938 | 1,45 | 4,6 | 0,084 |
| 6 | 1,51 | 0,932 | 1,47 | 4,7 | 0,087 |
| 7 | 1,54 | 0,936 | 2,20 | 3,0 | 0,297 |
| 8 | 1,62 | 0,936 | 2,17 | 3,3 | 0,270 |
| 9 | 1,59 | 0,938 | 2,01 | 3,5 | 0,230 |
| 10 | 1,55 | 0,940 | 1,82 | 3,8 | 0,180 |
| 11 | 1,52 | 0,943 | 1,63 | 4,1 | 0,140 |
| 12 | 0,30 | 1,060 | 0,16 | 2,4 | 0,045 |
| 13 | 1,48 | 0,937 | 2,11 | 2,9 | 0,293 |
| 14 | 1,46 | 0,938 | 2,07 | 3,0 | 0,283 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 15 | 1,12 | 0,971 | 1,69 | 2,8 | 0,230 |
| 16 | 1,06 | 0,986 | 1,28 | 3,0 | 0,182 |
| 17 | 1,21 | 0,963 | 1,54 | 3,4 | 0,193 |
| 18 | 0,94 | 0,988 | 1,09 | 3,3 | 0,127 |
| 19 | 0,65 | 1,021 | 0,80 | 2,5 | 0,139 |
| 20 | 1,02 | 0,966 | 0,98 | 3,8 | 0,090 |
| 21 | 0,75 | 1,010 | 0,62 | 3,2 | 0,075 |

Turli komponentlarni aralashtirish jarayonida kokslanadigan xom ashyolarning tarkibiy o‘zgarishlari ma’lum aralashma qonuniyatlariga muvofiq sodir bo‘ladi. Bunday aralashmalar asosida hosil bo‘ladigan mahsulotlar, odatda, aralashma tarkibida massa ulushi eng yuqori bo‘lgan komponentning fizik-kimyoviy xususiyatlarini namoyon etadi. Shu sababli, aralashmada ustunlik qiluvchi komponent yakuniy mahsulotlarning, xususan, koks sifat va tuzilishining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Masalan, smola va og‘ir katalitik kreking gazoyli aralashmalarini birgalikda kokslash jarayonida og‘ir gazoyl ulushining ortishi natijasida hosil bo‘lgan koksda anizotropik (yo‘nalgan tuzilishga ega) struktura elementlari ustunlik qiladi. Bunday xususiyatlar, odatda, faqat og‘ir katalitik kreking gazoylidan mustaqil tarzda olingan koksga xosdir. Bu holat, kokslash jarayonida xom ashyo aralashmasining tarkibi va texnologik sharoitlari koksning mikrostrukturasi shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini yaqqol ifodalaydi.

2-rasm esa alohida xomashyo komponentlari hamda ularning turli aralashmalaridan olingan koks namunalari tarkibidagi oltingugurt miqdorini ko‘rsatadi. Bu qiymatlar “Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar asosida aniqlangan bo‘lib, tajribada ishlatilgan og‘ir neft qoldiqlarining haqiqiy tarkibiy nisbati hisobga olingan.

Gudron




Rasmda doira ichida keltirilgan raqamlar hosil bo‘lgan koks tarkibidagi oltingugurtning massa ulushini bildiradi, chiziqlar bo‘ylab ko‘rsatilgan qiymatlar esa xom ashyo tarkibidagi alohida komponentlarning massa miqdorini ifodalaydi. 2-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, koks namunalari tarkibida oltingugurt miqdori sezilarli darajada farq qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kam oltingugurtli koks asosan gidrokraking qoldiqlari, termik kreking kondensatlari yoki ularning aralashmalarini kokslash orqali olinadi.

Koks tarkibidagi oltingugurtni kamaytirishning ma’lum usullaridan biri — bu termik tozalash bo‘lib, unda oltingugurt yuqori haroratda termik desulfurizatsiya orqali chiqarib yuboriladi. Oltingugurt miqdori 2,5% dan yuqori bo‘lgan kokslar uchun yuqori samaradorlikka ega. Biroq, oltingugurt miqdori 2,5% dan past bo‘lgan kokslar uchun bu usul amaliy jihatdan kam samarali hisoblanadi. Bunday kokslarni chuqurroq tozalash uchun haroratni keskin oshirish yoki kalkinatsiya (issiqlikda ishlov berish) vaqtini ikki baravarga uzaytirish talab etiladi. Ammo haroratning oshirilishi koksning ekspluatatsion xususiyatlariga – masalan, mexanik mustahkamlik va elektr o‘tkazuvchanlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi, uzoq vaqt ishlov berish esa texnologik samaradorlikni pasaytiradi va energiya sarfini sezilarli darajada oshiradi.

Dissertatsiyaning «Neftning qoldiq mahsulotlaridan koks olishning texnologik sxemasi va iqtisodiy ko‘rsatkichlari» deb nomlangan to‘rtinchi bobi kam oltingugurtli koks olish texnalogik sxemasi hamda iqtisodiy samaradorligini hisoblashga bag‘ishlangan.

Xomashyo — smola, kreking qoldiqlari yoki ularning aralashmasi — 1-nasos orqali ikki parallel oqimga ajratilib, 2- va 3-sonli pechlarning pastki hamda yuqori ekranli quvurlariga yuboriladi. Bu pechlarda moddalar 350–380 °C gacha qizdirilgach, oldindan isitilgan xomashyo 9-ustunning pastki qismiga, aynan yuqori kaskad plastinkasiga tushiriladi. Bir vaqtda, ikki parallel ish kamerasida (5 yoki 5) hosil bo‘lgan yuqori haroratli gaz va bug‘lar ham shu plastinka ostiga kiritiladi. Ustun ichida yuqoriga ko‘tarilgan gaz-bug‘ oqimi pastga qarab tushayotgan xomashyo bilan qarama-qarshi o‘zaro ta’sirga kirishadi: bug‘larning og‘ir fraksiyalari kondensatsiyalanib xomashyoga singadi, natijada ustunning pastki qismida kondensatsiyalangan mahsulotlar bilan aralashgan ikkilamchi xomashyo hosil bo‘ladi. Agar xomashyo tarkibida engil fraksiyalar mavjud bo‘lsa, ular yuqori haroratli bug‘ bilan bog‘lanib bug‘lanadi va 9-ustunning yuqori qismiga ko‘tariladi.

9-ustunning pastki qismidan ajratib olingan ikkilamchi xom ashyo 6-nasos yordamida rulonli 2 va 3-o‘choqlarga, konveksiya zonasining yuqori qismidagi quvurlarga, shuningdek, o‘ng tomon o‘choqlari va shift ekranlariga qayta yo‘naltiriladi. Ushbu quvurlar tizimi "reaksiya lasani" deb nomlanadi va u yerda ikkilamchi xom ashyo 490–510 °C haroratgacha qizdiriladi. Koks hosil bo‘lishining oldini olish maqsadida, bu quvurlarga ikkilamchi xom ashyo massasining taxminan 3 foizini tashkil qiluvchi, yuqori darajada qizigan suv bug‘i – turbulator sifatida yuboriladi. Turbulatorning kiritilishi oqibatida reaksiya lasanida oqim tezligi ortadi. Zaruratga qarab, bu bug‘ oqimi 10 va 11-chiziqli ustunlarga ham uzatilishi mumkin.

2 va 3-sonli pechlardan hosil bo‘lgan bug‘-suyuqlik aralashmasi 7-raqamli to‘rt yo‘nalishli kranlar orqali ikkita faol ishlayotgan 5-kameraga parallel ravishda yuboriladi. Shu paytda qolgan ikkita kamera (5') texnologik tsiklning navbatdagi ish bosqichiga tayyorlanmoqda. Issiq xom ashyo kameralar ichiga pastga qarab oqadi va ularni bosqichma-bosqich to‘ldiradi. Ushbu kameralar katta hajmga ega bo‘lib, ularning ichki diametri taxminan 4,6–5,5 metr, balandligi esa 27–28 metrni tashkil etadi. Xom ashyoning kameralarda uzoqroq vaqt davomida qolishi sababli

u yerda chuqur parchalanish jarayoni sodir bo‘ladi. Parchalanish natijasida hosil bo‘lgan bug‘lar doimiy ravishda kameraning yuqori qismidan chiqariladi va keyinchalik 9-raqamli ustunga yo‘naltiriladi, bu jarayonda esa og‘ir qoldiq modda pastki qismda to‘planadi. Suyuq qoldiq esa asta-sekin karbonlashadi va natijada koksga aylanadi.

9-ustunda kokslangan mahsulotlarning fraksiyalanishi amalga oshiriladi. Uning yuqori qismidan benzin bug‘lari, suv bug‘lari va kokslangan gaz ajralib chiqadi. Bu gazsimon mahsulotlar dastlab 8-sonli havo sovutkichda, so‘ngra 16-sonli suv sovutkich orqali qo‘shimcha sovutiladi. Sovutish jarayonidan so‘ng hosil bo‘lgan aralashma 17-sonli suv va gaz ajratgichga yo‘naltirilib, u yerda suv kondensati, beqaror benzin va ho‘l gaz komponentlariga ajratiladi.

Stabilizatsiyalanmagan benzinning bir qismi 15-sonli nasos orqali 9-ustunning yuqori likopchasiga purkash (yuvish) maqsadida yo‘naltiriladi. Benzinning qolgan muvozanatli miqdori esa 18-sonli issiqlik almashinuvchidan o‘tadi va u yerda yengil gazoylning issiqlik energiyasi yordamida qizdirilib, stabilizatsiya bo‘limiga uzatiladi. Shu bilan birga, 17-sonli suv-gaz ajratgichidan ajralgan suvli kondensat 14-nasos orqali 20-issiqlik almashinuvchidan o‘tkaziladi hamda 2 va 3-sonli pechlarning konveksiya bo‘limlariga o‘rnatilgan bug‘ qizdirgichlariga yuboriladi.




**Qizdirilmaydigan kameralarda sekinlik bilan boruvchi kokslash qurilmasi texnologik sxemasi:**

*1, 6, 12-15 –nasoslar; 2,3-quvurli pechlar; 4-yig’gich; 5, 5-sekinlik bilan koks hosil qiluvchi kameralar; 7- to`rt yo`lli jo‘mrak(kran); 8, 19, 21-havoli sovitish jihozlari; 9-rektifikatsion kolonna; 10, 11-bug’latuchi kolonna; 16-sovitkich; 17-ajratkich; 18, 20-issiqlik almashtirgichlar.*

Yengil va og‘ir gazoyillar tegishlicha 10 va 11-raqamli ajratuvchi kolonnalardan ajratilgach, mos ravishda 13 va 12-raqamli nasoslar orqali quyidagi texnologik yo‘nalish bo‘ylab harakatlantiriladi: avvalo, ular 18-raqamli issiqlik almashinuvchi-dan o‘tib, beqaror benzinni qizdirish jarayonini ta’minlaydi. So‘ngra oqim 20-raqamli issiqlik almashinuvchiga yo‘naltirilib, bu yerda suvli kondensatning isitilishi amalga oshiriladi. Keyinchalik, mahsulot 19 va 21-raqamli havo bilan sovitish apparatlarida sovitilib, maxsus mo‘ljallangan saqlash rezervuarlariga uzatiladi.

Kokslash jarayonida koks bilan to‘lgan kameralar texnologik tizimdan ajratiladi. Kameralarda qolgan suyuq mahsulotlar va neft bug‘larini to‘liq chiqarib yuborish maqsadida ularning ichki qismiga suv bug‘i yuboriladi va bu orqali puflash (produvka) amalga oshiriladi. Ajratilgan mahsulotlar dastlab 9-raqamli kolonnaga yo‘naltiriladi. Koks harorati 400 - 405 °C gacha pasaygach, hosil bo‘lgan bug‘lar oqimi 4-raqamli qabul qilgichga uzatiladi. Suv bug‘i yuborish jarayoni koks harorati 200 °C gacha pasayguncha davom ettiriladi. Keyingi bosqichda kameraga sovitish uchun suv yuboriladi. Bu bosqich yuborilgan suv bug‘lari atmosferaga chiqishi to‘xtab, 4-raqamli qabul qilgichga ulangan oqava quvurda suyuq suv paydo bo‘lguncha olib boriladi.

Qozog‘iston, Rassiya, O‘zbekistonda biz olgan korxonada kam oltingugurtli koks narxining ko‘rsatkichlari 6-jadvalda keltirilgan.

**6-jadval**

**Qozog‘iston, Rassiya, O‘zbekistonda biz olgan korxonada kam oltingugurtli koks narxi**

| Ishlab chiqarish hududi | O‘lchov birligi | Neft koksi narxi, сўм |
|---|---|---|
| **Kam oltingugurtli koks** | | |
| Qozog‘iston | 1 tonna | 3 859 500 |
| Rossiya | 1 tonna | 4 108 500 |
| O‘zbekistonda “Farg‘ona NQIZ” | 1 tonna | 3 486 000 |

2024 yildagi narxlar bo‘yicha materiallarning hisob-kitob kalkulyatsiyasi 4.2-jadvalda keltirilgan.

**7-jadval**

**Narxlar bo‘yicha materiallarning hisob-kitob kalkulyatsiyasi**

| Materiallar nomi | O‘lchov birligi | Miqdori | Bitta o‘lchov birligi bo‘yicha narxi, so‘m | Narxi (NDS ni hisobga olgan holda), so‘m |
|---|---|---|---|---|
| **1 tonna kam oltingugurtli koks olish uchun** | | | | |
| Ekstrakt | t | 0,250 | 1 400 000 | 350000 |
| Gudron | t | 0,500 | 2 500 000 | 1250000 |
| Gach | t | 0,150 | 2 250 000 | 337500 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Asfalten | t | 0,100 | 3800000 | 380000 |
| | | | Jami:<br>Ish haqqi:<br>Boshqa xarajatlar<br>Hammasi: | 2290000<br>48 500<br>700 000<br>3066000 |

7.8.9 RH 39.0-137:2017 bandiga ko‘ra: import igna koksini o‘rnini bosa oladigan neft qoldiqlaridan olingan kam oltingugurtli koksning iqtisodiy samaradorligi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Э = \left( \frac{B_u \times K_в}{K_{в3}} - З_{их} \right) \times A_{но}$$

Metallurgiya va elektrod ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan kam oltingugurtli neft koksilaridan foydalanishda yillik kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik:

$$Э = (\frac{330 \times 12450}{1} - 3066000) \times 1000 = 1\,042\,500\,000 \text{ so‘m}$$

ni tashkil etadi.

## XULOSALAR

Dissertatsiyasi ishini bajarishda olingan asosiy ilmiy va amaliy natijalari quyidagilar hisoblanadi:

1 "Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ tomonidan og‘ir neft qoldiqlarini qayta ishlash muammosini ikki bosqichli kokslashtirish sxemasi yordamida hal qilish taklif etilmoqda. Ushbu texnologik yondashuv quyidagi asosiy iqtisodiy va texnik natijalarga erishishni ta’minlaydi:

- Yiliga 600 ming tonnagacha vakum seryo (qatron) to‘liq qayta ishlash va natijada 465 ming tonna/yil hajmida distillangan fraksiyalarni olish;
- Kam oltingugurtli qoldiqlardan samarali foydalanish orqali alyuminiy sanoati uchun yiliga 76,5 ming tonnagacha kam oltingugurtli kokslashtirishni ishlab chiqarish va qo‘shimcha ravishda yiliga 145 ming tonnagacha bo‘lgan qo‘shimcha mahsulotlar olish;
- Investitsiyalarni qoplash muddatini 2,8 yilga qisqartirish;
- Kompaniyaning sof foydasini yiliga 750 million so‘mga oshirish.

Mazkur yondashuv nafaqat mavjud resurslardan maksimal samarali foydalanishni ta’minlab, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham imkon yaratadi.

2. Bir o'zgaruvchan chiziqli regressiya modeli xom ashyoning kimyoviy tarkibi va kokslash bosimi asosida koks mahsulotlarining asosiy parametrlarini, shu jumladan sifat va miqdorni tahlil qilish uchun tuzilgan. Ushbu modellarning haqiqiyligi va samaradorligi ikki bosqichli pishirish jarayonidan foydalangan holda laboratoriya sharoitida olingan eksperimental ma'lumotlar orqali tekshiriladi. Xom ashyoning xossalarini o'zida mujassam etgan natijada olingan regressiya

tenglamalari koks ishlab chiqarish jarayonida mahsulot sifatini baholashda va kokslash qurilmalari uchun hisob-kitoblarida qo'llaniladi.

3. Laboratoriya shartlarida qayta ishlash jarayoni asosida kokslash usuli ishlab chiqilgan. Tadqiqotlar natijasida, kokslash jarayonining uchinchi bosqichini amalga oshirish muvozanatli qayta ishlashni ta’minlash uchun samarali va yetarli darajada ekanligi aniqlandi.

4. Koks tarkibidagi oltingugurt miqdoriga qayta ishlash sifatining ta’siri laboratoriya tadqiqotlari natijalari bilan tasdiqlandi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, yuqori aromatik xom ashyolardan foydalanishda oltingugurt miqdorini kamaytirish uchun past retsirkulyatsiya koeffitsiyentlari yoki aylanmasiz kokslash sxemalaridan foydalanish samarali natijalar beradi.

5. "Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi" MCHJ sharoitida, faqat past oltingugurtli qoldiqlardan foydalanish orqali, oltingugurt miqdori 0,52–0,98% bo‘lgan va anizotropik tuzilmalarning yuqori nisbatiga ega past oltingugurtli koks ishlab chiqarish imkoniyati aniqlangan. Ushbu usul elektrodlarga mo‘ljallangan mahsulotlarni yillik 36 ming tonnagacha ishlab chiqarishga imkon beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ДСс. 03/2025.27.12.Т.42.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ХИМИКО - ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ**

**ИНСТИТУТ ОБЩЕЙ И НЕОРГАНИЧЕСКОЙ ХИМИИ**

**АБДУРАХМОНОВ АБРОР БАРАТОВИЧ**

# ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ МАЛОСЕРНИСТОГО КОКСА ИЗ НЕФТЯНЫХ ОСТАТКОВ

**02.00.08 – Нефтегазовая химия и технология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2026**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2024.4.PhD/T5022**

Диссертация выполнена в Институте общей и неорганической химии

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице научного совета по адресу www.tkti.uz и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

**Научный руководитель:** **Хамидов Басит Набиевич**
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Фозилов Садриддин Файзуллаевич**
доктор технических наук, профессор

**Тураев Толиб Бозорович**
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Ташкентский Государственный Технический университет им. И. Каримова**

Защита диссертации состоится «3» 09 2026 г. в 11⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.03/2025.27.12.T.42.01 при Ташкентском химико-технологическом институте по адресу:(100011, г. Ташкент, Шайхонтахурский район, ул. А.Навои, 32. Тел.: (99871) 244-79-21, факс: (99871) 244-79-17, e-mail: tkti_info@edu.uz.)

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Ташкентского химико-технологического института за №434, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (100011, г. Ташкент, Шайхонтахурский район, ул. А.Навои, 32.Тел.: (99871) 244-79-21).

Автореферат диссертации разослан «28» 07 2026 года.
(протокол рассылки № 19 от «28» 07 2026 г.).

**С.М.Туробжонов**
Председатель Научного совета по присуждению учёной степени доктора наук, д.т.н., профессор

**Х.И.Кадиров**
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёной степени доктора наук, д.т.н., профессор

**Г.Рахмонбердиев**
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёной степени доктора наук, д.т.н., профессор

**ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В настоящее время получение кокса в результате переработки нефтяных остатков и его использование в необходимых отраслях является одной из важных задач. Поскольку содержание серы в получаемом нефтяном коксе достаточно высоко, его прямое использование для промышленных нужд оказывает сильное негативное влияние на окружающую среду. Снижение содержания серы в основном осуществляется методом десульфурации. Благодаря своей механической прочности нефтяной кокс в основном используется в электрометаллургии в качестве электрода, при добавлении измельчённого кокса в цемент — для повышения прочности и защиты от влаги, а также в теплоэлектростанциях и металлургии в качестве топлива. Определение методов снижения содержания серы в составе нефтяного кокса, изучение их физико-механических свойств и получение на основе этих данных научных и практических новшеств имеют большое значение.

В современном мире ведутся научные исследования по получению низкосернистого нефтяного кокса из остаточных нефтепродуктов и разработке соответствующих технологий. В этом направлении необходимо обосновать следующие научные решения: определить содержание серы в коксе, полученном из нефтяных остатков; изучить качественные и количественные показатели, химические и физические свойства полученного нефтяного кокса; усовершенствовать использование низкосернистого нефтяного кокса в электрометаллургии, строительстве, на тепловых электростанциях, а также в качестве углеродсодержащего адсорбента; разработать технологию получения качественного низкосернистого нефтяного кокса на основе местных остаточных нефтепродуктов.

В Республике быстро развивается нефтехимическая промышленность, создаются новые производственные мощности, расширяются ассортимент и объемы конкурентоспособной продукции, что, в свою очередь, приводит к достижению научных и практических результатов в развитии технологий производства низкосернистого нефтяного кокса из остаточных нефтепродуктов. В Стратегии развития «Новый Узбекистан» на 2022–2026 годы, направленной на дальнейшее развитие Республики Узбекистан, определены задачи «ускорения процессов трансформации в нефтегазовой сфере с внедрением рыночных механизмов при обеспечении социальных гарантий в сфере газоснабжения». В этом контексте особое внимание уделено получению низкосернистого нефтяного кокса и его использованию для промышленных нужд.

